

Jismoniy shaxslar uchun O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida bank kartalari hisobvarag'ini ochish, milliy bank kartasini chiqarish va xizmat ko'rsatish to'g'risida OMMAVIY OFERTA (shartnoma)

Ushbu hujjat "Garant Bank" AJ (keyingi o'rinlarda – Bank)ning milliy valyutada jismoniy shaxslar uchun karta hisobvarag'ini ochish, milliy bank kartasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha Ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda – shartnoma) tuzish borasidagi rasmiy taklifi hisoblanadi.

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-370-moddalari, O'zbekiston Respublikasi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishi to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 3294, 2021-yil 3-aprel) "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat bankining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizomga (ro'yxat raqami 3030, 2018-yil 3-iyul) muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, barcha jismoniy shaxslarga quyida keltirilgan shartlarda Shartnoma tuzish to'g'risidagi rasmiy ommaviy taklifdir.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Shartnoma Mijoz tomonidan ushbu Shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan harakatlar amalga oshirilgan paytdan boshlab tuzilgan (akseptlangan) hisoblanadi va kuchga kiradi. Bu harakatlar Mijozning ushbu Shartnomada belgilangan shartlarda shartnoma tuzishga roziligini tasdiqlaydi.

1.2. Shartnomaning joriy versiyasi Bankning <https://www.garantbank.uz> saytida joylashtirilgan.

1.3. Asosiy atama va tushunchalar:

Bank – "Garant Bank" AJ va uning alohida tarkibiy bo'linmalari;

Bank kartasi - bank tomonidan milliy valyutada chiqarilgan, to'lov vositasi sifatida qo'llaniladigan va uning egasiga karta hisobvarag'idagi mablag'lar doirasida hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amaliyotlarni amalga oshirish imkoniyatini beradigan to'lov kartasi. Karta bankning mulki bo'lib hisoblanadi va kartaning ustki sathida ko'rsatilgan muddatga chiqariladi;

Qo'shimcha karta - mijoz nomiga qo'shimcha tarzda rasmiylashtirilgan va dastlabki chiqarilgan bank kartasi bog'langan karta hisobvarag'idagi mablag'lar doirasida amaliyotlarni amalga oshirish imkonini beruvchi bank kartasi;

Tashkilot - ish beruvchi va xodim o'rtasidagi hisob-kitoblar doirasida bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Bank bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxs, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tashkilot (vakolatxonalar, filiallar va boshqalar) yoki yakka tartibdagi tadbirkor;

Tashkilot xodimi/Mijoz - tashkilot bilan mehnat yoki fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan jismoniy shaxs. Shartnomani qo'llash maqsadida ushbu ta'rif pensiya va nafaqa oluvchi shaxslarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalari va boshqa o'quv yurtlaridagi talabalar/kursantlar/tinglovchilarga ham taalluqlidir;

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat – O'zbekiston fuqarosining milliy pasporti, identifikatsiya kartasi (ID-karta), 16 yoshga to'lmagan fuqaroning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi, chet el fuqarosining milliy pasporti (tegishli ichki ishlar organlari tomonidan chet el fuqarosi ro'yxatga



Garant bank

olinganligini tasdiqlovchi hujjat bilan birga) yoki chet el fuqarosining O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoxud respublikada akkreditatsiyadan o'tganligini tasdiqlovchi diplomatik pasport yoki akkreditatsiya kartochkasi, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi hisoblanadi;

Ish haqi - qonun hujjatlariga muvofiq ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (pensiya va stipendiyalar ham shular jumlasiga kiradi);

Mijoz - karta hisobvarag'ini ochish va Bank kartasini chiqarish uchun yoki ular mavjud bo'lgan taqdirda xizmatdan foydalanish uchun Bankka murojaat qilgan jismoniy shaxs;

Karta hisobvarag'i - pul mablag'larini Bank kartasi orqali tasarruf etish mumkin bo'lgan Mijozning bank hisobvarag'i;

Avtorizatsiya – to'lov tashkiloti tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq telefon, elektron yoki boshqa aloqa vositalari orqali bank kartasidan foydalanib amaliyot o'tkazish uchun Bank (bank kartasi emitenti) dan ruxsat olish jarayoni;

Masofaviy bank xizmati (bundan keyin - MBX) - mijoz tomonidan telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanib, masofadan uzatiladigan (qabul qilinadigan) elektron ko'rsatmalar asosida Bank tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar majmuasi;

Tranzaksiya - mijozning o'z karta hisobvarag'i va bank kartasi orqali amalga oshiriladigan amaliyoti, jumladan to'lov o'tkazish, naqd pul yechib olish va boshqa amaliyotlar;

PIN-kod - bank kartasi orqali mijoz tomonidan amalga oshiriladigan amaliyotlarning qonuniyligini tasdiqlash uchun mo'ljallangan shaxsiy identifikatsiya raqami;

Bank kartasini bloklash - Bank kartasining faoliyatini to'xtatib qo'yadigan yoki butunlay to'xtatadigan choralar (so'nggi holatda xizmat ko'rsatish uchun taqdim etilganda Bank tomonidan kartaning olib qo'yilishi nazarda tutiladi);

Bank kartasini blokdan chiqarish - Bank tomonidan kartaning faoliyatini qayta tiklash uchun ko'riladigan choralar;

Bankomat - bank kartasining egasiga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tartibida naqd pul olish va bank kartasi bilan boshqa amaliyotlarini amalga oshirish imkonini beruvchi hamda bajarilgan amaliyotlar bo'yicha slip hujjat shakllantiruvchi qurilma;

Terminal – to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan elektron qurilma bo'lib, u mijozga tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash, bankda naqd pul mablag'larini va amalga oshirilgan amaliyotlar bo'yicha to'lov cheklarini olish, PIN-kodni o'zgartirish hamda bank kartasi balansi haqida ma'lumot olish imkonini beruvchi qurilma;

Onlayn-hisob - Mijozning tizimidagi shaxsiy hisobvarag'i;

Aloqa markazi - Mijozga telefon, onlayn suhbat, elektron pochta va telegram bot orqali amalga oshirilgan amaliyotlar haqida ma'lumot berish, bank kartasini bloklash va shu kabi masofaviy xizmatlar ko'rsatuvchi bank bo'linmasi (Call-center);

Telefon suhbatlari uchun parol - mijozning shaxsini va vakolatlarini tasdiqlash maqsadida qo'llaniladigan shartli so'z yoki belgilar majmuidir. Telefon suhbatlari uchun parol mijoz tomonidan jismoniy shaxslar uchun milliy valyutadagi bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi, bank tomonidan tasdiqlangan shaklda taqdim etiladigan arizada ko'rsatiladi;

Qaydnoma - Tashkilot xodimlariga ish haqi o'tkazish uchun zarur bo'lgan rekvizitlarni o'z ichiga olgan tashkilotning moliyaviy hujjatidir. Qaydnoma bankka elektron shaklda yoki qog'oz ko'rinishida taqdim etiladi;



Garant bank

Reyestr - Tashkilot tomonidan tuzilgan xodimlar ro'yxati bo'lib, unda xodimlarning familiyasi, ismi, sharifi, pasport ma'lumotlari, tug'ilgan sanasi va joyi, doimiy yashash manzili hamda boshqa majburiy rekvizitlar ko'rsatiladi;

Tranzit hisob raqami - tashkilotning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisob raqamidan yoki budjet tashkilotining g'aznachilik shaxsiy hisob raqamidan xodimlarning karta hisob raqamlariga ish haqi (pensiya, stipendiya) larni o'tkazish uchun ochilgan bank hisob raqami;

Elektron xabarnoma - bank tomonidan mijozning mobil telefoniga (SMS, PUSH) yoki elektron pochta orqali internet tarmog'i va mobil aloqa orqali yuboriluvchi standart shakldagi qisqa xabarlar;

Tashqi to'lov tashkiloti – to'lov tizimini aniqlaydigan va uning qoidalarini belgilaydigan tovar belgilari va (yoki) xizmat ko'rsatish belgilariga egalik huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs (masalan, CLICK, PAYME, MUNIS kabi);

MTT - Milliy to'lov tizimi;

Autentifikatsiya - mijozning elektron to'lov topshirig'i haqiqiylikni tekshirish jarayoni;

Kompromitatsiya – to'lov tizimiga kirish uchun ishlatiladigan parol yoki tasdiqlash vositalari faqat mijoz tomonidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidagina qo'llanilayotganiga ishonchning yo'qolishi;

Shaxsiy ma'lumotlar - mijozga tegishli bo'lgan yoki uni aniqlash imkonini beradigan, elektron, qog'oz va boshqa moddiy vositalarda qayd etilgan axborot;

Kuryerlik xizmati - Bank kuryeri yoki bank-emitent bilan shartnomaviy munosabatlarga ega bo'lgan, mijozlarning so'rovlari asosida yoki so'rovsiz (bank tashabbusi bilan) kartalarni yetkazib berishni ta'minlovchi kuryerlik xizmati.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Ushbu shartnomaning predmeti – Bank tomonidan karta hisobvarag'ini ochish, bank kartalarini chiqarish, shuningdek shartnoma shartlari va amaldagi qonunchilikka muvofiq karta hisobvarag'i hamda bank kartasiga xizmat ko'rsatishdan iborat.

3. KARTA HISOBINI OCHISH, BANK KARTASINI CHIQARISH VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBI

3.1. Mijoz shartnoma shartlariga qo'shilish uchun mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi (nusxasi olinadi, asl nusxasi qaytariladi) hamda ushbu shartnomaning 1-ilovasi hisoblangan arizani imzolash yoki bankning masofaviy bank xizmatlari tizimlari orqali so'rov yuborish yo'li bilan bankning ushbu shartnomasini qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Bunda, bankning masofaviy bank xizmatlari tizimi orqali bankda allaqachon ochiq bank hisob raqamlariga ega bo'lgan shaxslardan karta chiqarish uchun so'rovlar qabul qilinadi. Mijoz ushbu shartnomani qabul qilish orqali shartnoma shartlari va bank tariflarini o'zi uchun majburiy ekanligiga roziligini hamda tan olishini tasdiqlaydi.

3.2. Bank mijozdan quyidagi hujjatlarni ham talab qilishi mumkin:

bank kartalarini foydalanishga taqdim etish bo'yicha o'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarga ularning ota-onasidan biri yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning (qonuniy vakilining) yozma roziligi va arizasi, shuningdek mazkur shaxslarning pasport nusxalari;

hokimning Mijozga vasiylik/homiylik o'rnatish to'g'risidagi qarori (agar mavjud bo'lsa);



Garant bank

Sudning mijozni muomalaga layoqatsiz deb topish yoki muomala layoqatini cheklash to'g'risidagi qarori (agar qo'llanilsa).

3.3. Bankning masofaviy bank xizmatlari tizimlari orqali bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish hamda jismoniy shaxslarning karta hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish uchun so'rov rasmiylashtirilayotganda, mijoz ushbu shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq shakldagi arizani to'ldirmaydi.

3.4. Karta hisobvarag'i va bank kartasi bank tomonidan ariza topshirilgan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kuni ichida ochiladi.

3.5. Ish haqi loyihasi doirasida Bank kartasini rasmiylashtirish paytida, Bank kartasi mijoz bankka tashrif buyurganda quyidagi shartlar asosida ochiladi/chiqariladi:

Bank va Tashkilot o'rtasida ish beruvchi va xodim hisob-kitoblari doirasida bank xizmatlari ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzilgan bo'lsa;

Tashkilot tomonidan taqdim etilgan ro'yxatda mijoz haqidagi ma'lumotlar mavjud bo'lsa.

3.6. Tegishli avtomatlashtirilgan jarayonlar mavjud bo'lganda, karta hisobvarag'i mijoz tomonidan masofadan turib, bankka kelmasdan ochilishi mumkin.

Karta hisobvarag'ini masofadan turib ochish va undan foydalanish, shuningdek bank kartasini chiqarish tartibi masofaviy bank xizmati tizimlaridan foydalangan holda xizmat ko'rsatishning tegishli qoidalari bilan tartibga solinadi.

3.7. Bevosita bankda amalga oshiriladigan karta hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlarni mijozning o'zi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnoma rasmiylashtirilgan shaxs bajarishi mumkin.

3.8. Mijoz bankka o'z nomidan karta hisobvarag'i bo'yicha naqd pulsiz amaliyotlarni amalga oshirish huquqini beradi. Bank tomonidan mijoz nomidan hisob-kitob hujjatlarini tuzish (ushbu Shartnomaning 4.1.5-bandida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno) mijozning bank tomonidan belgilangan shakldagi blankalarda rasmiylashtirilgan va mijozning shaxsan o'zi yoki ishonchnoma asosida harakat qiluvchi ishonchli shaxs tomonidan imzolangan arizalari asosida amalga oshiriladi. Mijozning (ishonchli vakilning) imzosi shaxsni tasdiqlovchi hujjatdagi imzo namunasiga mos kelishi shart.

3.9. Karta hisobvarag'i ochilgandan va bank kartasi chiqarilgandan so'ng, bank kartasini mijozga shaxsan bankka kelganda uning o'ziga yoki mijozning xohishiga ko'ra, kuryerlik xizmati orqali topshiradi.

Bank/kuryerlik xizmati mijozni identifikatsiya qilgandan so'ng bank kartasini mijozga topshiradi.

Identifikatsiyadan o'tish uchun mijoz bank/kuryerlik xizmatiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasini va ushbu shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq shaklda tuzilgan Bank kartasini olish to'g'risidagi arizani taqdim etadi. Bank kartasi faqat mijoz bank kartalarini ro'yxatga olish jurnaliga imzo chekkanidan keyingina unga berilishi mumkin.

3.10. Agar mijoz kartani kuryerlik xizmati orqali yetkazib berishni so'ragan bo'lsa, bank kartasi konvertida kuryerlik xizmati orqali mijozga topshiriladi. Bunda karta "Bloklangan" holatda taqdim etiladi.

Xizmat tariflari bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan bo'lib, ular mijozga bankning masofaviy xizmat ko'rsatish tizimida ham taqdim etiladi.

3.11. Bank kartasi orqali amalga oshirilgan amaliyotlar haqida elektron xabarnoma olish uchun, mijoz kartani olayotganda SMS-xabarnoma xizmatini faollashtirishi lozim.

3.12. Karta hisobvarag'i mijoz tomonidan quyidagi maqsadlarda foydalanilishi mumkin:



Garant bank

qonun hujjatlariga muvofiq mijozning o'z hisobvaraqlaridan yoki boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning hisobvaraqlaridan kelib tushgan mablag'larni mijoz hisobvarag'iga kiritish; amaldagi qonunchilik doirasida joriy naqd pulsiz amaliyotlarni amalga oshirish;

alohida tuziladigan shartnomalar asosida, tegishli turdagi omonatlar mavjud bo'lganda, muddatli va/yoki jamg'arma depozitlarini ochish uchun mablag'larni o'tkazish;

muddatli/jamg'arma depozitining amal qilish muddati tugagandan so'ng karta hisobvarag'iga o'tkaziladigan pul mablag'larini hisobga olish;

xalqaro pul o'tkazmalarini yuborish maqsadida konvertatsiya amaliyotlarini amalga oshirish uchun mablag'larni o'tkazish;

qoldiq doirasida naqd pul mablag'larini kiritish va olish;

amaldagi qonun hujjatlari doirasida karta hisobvarag'i bilan boshqa operatsiyalar/harakatlarni amalga oshirish.

Karta hisobvarag'idan mablag'larni naqd pulsiz o'tkazish amaliyotlarni va bank tomonidan mijoz nomidan hisob-kitob hujjatlarini tuzish, bank tomonidan tasdiqlangan shakldagi ariza asosida, mijoz imzosi bilan va karta hisobvarag'iga biriktirilgan bank kartasi taqdim etilgandan so'ng amalga oshiriladi.

3.13. Mijoz bank kartasidan quyidagi hollarda foydalanishi mumkin:

tovarlar, ishlar va/yoki xizmatlar uchun terminallar/tarmoq orqali to'lov amalga oshirilganda;

bankomatlar yoki infokiosklar orqali to'lov amalga oshirilganda;

Bank (yoki boshqa banklar) kassalarida, bankomatlar yoki infokiosklar orqali naqd pul olish uchun;

amaldagi qonunchilik va ushbu shartnoma nazarda tutulgan hollarda.

3.14. Bank kartasining amal qilish muddati kartaning old tomonida ko'rsatiladi.

3.15. Qo'shimcha kartani chiqarish va unga xizmat ko'rsatishga nisbatan, agar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, ushbu Shartnoma shartlari qo'llaniladi.

3.16. Mijozning bank aloqa markazi xizmatlaridan foydalanishi zarurati, ma'lumotlarning xavfsizligi va himoyasini ta'minlash, shuningdek, xizmat ko'rsatish sifatini tegishli darajada saqlash maqsadida, bank telefon suhbatlarini qo'shimcha ogohlantirmasdan yozib olishi mumkin.

3.17. Kompromitatsiya holatida bank o'z ixtiyoriga ko'ra bank kartasini bloklash huquqini saqlab qoladi. Bank kartasini blokdan chiqarish uning avvalgi bloklanishiga sabab bo'lgan holatlar bartaraf etilgandan so'ng amalga oshirilishi mumkin.

3.18. Bank kartasini bloklash mijozning tashabbusi bilan - aloqa markaziga murojaat qilganda, bankka tashrif buyurganda yoki masofaviy bank xizmati tizimlaridan foydalanganda amalga oshirilishi mumkin.

3.19. Bank kartasini bloklash jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, shuningdek maxsus vakolatli organlarning ko'rsatmasiga binoan ham amalga oshirilishi mumkin.

3.20. Bank quyidagi hollarda bank kartasini olib qo'yishi mumkin:

bank kartasidan foydalanishga vakolatli bo'lmagan shaxs tomonidan foydalanilganda;

bank kartasi yo'qotilmagan bo'lsa, uni qayta chiqarish paytida;

karta hisobi yopilganda.



Garant bank

Bunda, agar tashkilot tomonidan quyidagi kamchiliklar yuz bergan bo'lsa, pul mablag'lari mijozning hisobvarag'iga o'tkazilmaydi:

Tashkilot tomonidan tranzit hisobvarag'iga pul mablag'lari kelib tushgan paytdan boshlab keyingi bank kunidan kechiktirmay qaydnoma taqdim etilmaganda.

3.21. Tashkilot xodimlarining karta hisobvaraqlariga pul mablag'larini masofadan o'tkazish imkoniyati mavjud bo'lsa, tashkilot bankka qaydnoma taqdim etish majburiyatidan ozod etiladi.

3.22. Bank Tashkilot tomonidan quyida ko'rsatilgan kamchiliklar xabarnoma olingan paytdan boshlab 3 (uch) bank ish kuni ichida bartaraf etilmagan taqdirda maxsus tranzit hisob raqamiga ilgari kelib tushgan pul mablag'larini jo'natuvchi tashkilotning hisob raqamiga qaytaradi:

qaydnomadagi mijozning F.I.Sh. va uning karta hisobvarag'i raqami bankning ABTidagi mijozning haqiqiy F.I.Sh. va karta hisobvarag'i raqamiga mos kelmaganda;

Bank tomonidan belgilangan shakldagi qaydnoma va/yoki ro'yxat bankka kelib tushmaganda;

Qaydnomadagi imzolar va muhr tashkilotning imzo namunalari kartochkasidagi tegishli ma'lumotlarga mos kelmaganda;

Tranzit hisob raqamiga kelib tushgan summa bilan qaydnomada ko'rsatilgan umumiy summa o'rtasida tafovut mavjud bo'lganda;

Mijozning shaxsni tasdiqlovchi hujjati amal qilish muddati tugaganda, shuningdek, ushbu shartnoma shartlariga asosan bank talabiga ko'ra hujjatlar taqdim etilmaganda;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

3.23. Karta hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'iga foiz hisoblanmaydi.

3.24. Bank kartalaridan g'ayriqonuniy foydalanish holatlarining oldini olish maqsadida, agar mijoz uch yuz oltmish besh (365) taqvim kuni davomida bank kartasidan foydalanib amaliyotlarni amalga oshirmasa va hisobda ijobiy qoldiq mavjud bo'lsa, bank kartani bloklaydi. Mijoz bu haqda mobil ilovadagi push-bildirishnoma yoki Bankning qaroriga ko'ra boshqa mavjud aloqa kanali orqali xabardor etiladi.

4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Bank quyidagilarga haqli:

4.1.1. Jismoniy va yuridik shaxslarga, shuningdek o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarga ularning arizalari asosida o'zaro tuziladigan shartnoma yoki ofertani qabul qilish yo'li bilan tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quriloni tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga (ro'yxat raqami 2886, 2017-yil 23-may) muvofiq mijozni o'rnatilgan tartibda identifikatsiyalangan holda bank kartalarini foydalanishga taqdim etish;

4.1.2. O'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarga ularning ota-onasidan biri yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning (qonuniy vakilining) yozma roziligi va arizasi asosida o'zaro tuziladigan shartnoma yoki ofertani qabul qilish yo'li bilan tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga (ro'yxat raqami 2886, 2017-yil 23-may) muvofiq mijozni o'rnatilgan tartibda identifikatsiyalangan holda bank kartalarini foydalanishga taqdim etish;



Garant bank

4.1.3. Zarurat tug'ilganda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, mijoz tomonidan karta hisobraqami bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliyotlarning qonuniyligini tekshirish va ushbu shartnomada ko'zda tutilgan xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq zarur tasdiqlovchi hujjatlarni so'rab olish;

4.1.4. Bank kartasini quyidagi hollarda olib qo'yish:

ushbu shartnoma bekor qilinganda;

Bank kartasidan foydalanishga vakolati bo'lmagan shaxs tomonidan foydalanilganda;

Bank kartasi qayta chiqarilganda.

4.1.5. Mijozning roziligisiz karta hisobvarag'idan quyidagilarni yechib olish:

Bank kartasi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi, shu jumladan mijoz tomonidan masofaviy bank xizmati vositasida bajarilgan elektron to'lovlar;

Bank tariflariga muvofiq bankning komission to'lovi;

Karta hisobvarag'ining faol qoldig'idan ortiq amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi; tegishli asoslar mavjud bo'lganda karta hisobvarag'iga xato o'tkazilgan mablag'lar;

Mijoz va bank o'rtasidagi boshqa amaldagi shartnomaviy munosabatlar natijasida yuzaga kelgan va ular paydo bo'lgan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kuni ichida to'lanmagan mijozning har qanday qarzlarni qoplash uchun yetarli miqdordagi summalar.

Bunda, mijozning karta hisobvarag'i valyutasidan farq qiluvchi valyutadagi qarzlarni so'ndirishda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bunday qarzni karta hisobvarag'idagi mablag'lar hisobidan so'ndirish paytida amal qilayotgan kursidan foydalaniladi;

4.1.6. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, Mijozdan uni tegishli tarzda tekshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni, shu jumladan Mijoz amalga oshirayotgan amaliyot haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilish;

4.1.7. Mijozni tegishli tarzda tekshirish imkoniyati bo'lmaganda, karta hisobvarag'ini ochishdan va bank kartasini chiqarishdan voz kechish, mijozning karta hisobvarag'i bo'yicha amaliyotini amalga oshirmaslik yoxud shartnomaning amal qilishini bir tomonlama tartibda to'xtatish;

4.1.8. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan hollarda karta hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlarni to'xtatib qo'yish va amaliyotlarda foydalaniladigan pul mablag'larini muzlatish;

4.1.9. Quyidagi hollarda pul mablag'larini kirim qilish va hisobdan chiqarishni to'xtatib qo'yish:

Mijozning arizasiga ko'ra,

Mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning amal qilish muddati tugaganda,

Shartnoma shartlariga muvofiq bankning talabiga binoan hujjatlar taqdim etilmaganda;

4.1.10. Bank kartasini qayta chiqarish uchun ariza qabul qilinganda, mijozdan bank kartasini qaytarishni talab qilish (karta yo'qolishi munosabati bilan qayta chiqarish bundan mustasno);

4.1.11. Ushbu shartnomada nazarda tutilgan xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq ma'lumotlarni mijozdan so'rab olish;

4.1.12. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan amaliyotlar limitlariga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish va ularni belgilash;



Garant bank

4.1.13. Mijozning xavfsizligini ta'minlash maqsadida bank quyidagi hollarda bank kartasini bloklash yoki bank hisobvarag'ini yopish:

bank kartasidan foydalanib firibgarlik harakatlari aniqlanganda;

So'nggi 12 oy davomida bank kartasidan foydalanilmaganda;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu shartnomada belgilangan hollarda;

Mijoz bu haqda Mobil ilovadagi push-xabarnoma yoki boshqa mavjud aloqa vositalari orqali xabardor etiladi.

4.1.14. Quyidagi holatlarida bank kartasi orqali amaliyotlar o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish hamda bank kartasini muomaladan chiqarish to'g'risida qaror qabul:

bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan noqonuniy foydalanishni tasdiqlovchi holatlar mavjudligida;

bank kartasidan foydalanish vakolatiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan ishlatilganda;

bank kartalaridan foydalanish to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan boshqa holatlarda;

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

4.2. Bank quyidagilarga majbur:

4.2.1. Ariza taqdim etilgan kundan boshlab karta hisobvarag'ini ochish va mijozga 3 (uch) bank ish kuni ichida kechiktirmay mijozga bank kartasini berish;

4.2.2. Mijozga bank kartasi yo'qolganligi va (yoki) bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risidagi xabarnomani tunu kun yuborish imkoniyati bilan ta'minlash;

4.2.3. Ushbu shartnomada o'rnatilgan tartibga asosan bank kartasini berish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha bank tariflarining o'zgarganligi hamda bank kartasini amal qilish muddatidan avval to'xtatish to'g'risida Mijozni xabardor qilish;

4.2.4. Karta hisobvarag'i yopilganda, keyingi operatsiya kunidan kechiktirilmagan holda karta hisobvarag'ida mavjud pul mablag'larini mijozga berish;

4.2.5. Bank kartalari orqali o'tkazilgan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirish;

4.2.6. Keyingi ish kunidan kechiktirmasdan karta hisobvarag'iga pul mablag'larini kiritish;

4.2.7. Mijozning arizasini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqish;

4.2.8. Mijoz talabiga binoan uning bank kartasidan foydalanish bilan bog'liq tegishli hujjatlarni va axborotni shartnomada belgilangan tartibda taqdim etish;

4.2.9. Amaldagi qonunchilik doirasida va ushbu shartnoma shartlariga muvofiq mijozning topshirig'i bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish xizmatlarini ko'rsatish;

4.2.10. Karta hisobvarag'idan bank kartasi orqali amalga oshirilgan va PIN-kod yoki bir martalik o'zgaruvchan kodlar yordamida tasdiqlangan barcha tranzaksiyalar summasini yechib olish (amaliyotlar haqiqiylikini tasdiqlash shartlari masofaviy xizmatlardan foydalangan holda xizmat ko'rsatishning alohida qoidalarida nazarda tutilgan); bir martalik o'zgaruvchan kodlar (amaliyotlarning haqiqiylikini tasdiqlash shartlari masofaviy xizmatlardan foydalangan holda xizmat ko'rsatishning alohida qoidalarida nazarda tutilgan);

4.2.11. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ish beruvchi va xodim o'rtasidagi hisob-kitoblar doirasida olinishi lozim bo'lgan pul mablag'larini jo'natuvchining hisobvarag'iga qaytarish;

4.2.12. Mijozga karta hisobvarag'i holati haqida masofadan xabardor qilishning qo'shimcha xizmatlarini yoki masofaviy bank xizmatlarini belgilangan tartibda ko'rsatish;



4.2.13. Mijozning yozma arizasi yoki bankning masofaviy bank xizmatlari orqali so'rovi asosida karta hisobvarag'idan ko'chirma berish, shuningdek mijoz aloqa markaziga murojaat qilganda, uning shaxsini tasdiqlagan holda karta hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilgan tranzaksiyalar haqida ma'lumot taqdim etish;

4.2.14. Karta hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlar sirini saqlash va bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda uchinchi shaxslarga taqdim etish;

4.2.15. Bank kartasi yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida xabarnoma olinganda, bank kartasi orqali operatsiyalarni o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yishi hamda bank kartasini muomaladan chiqarish choralarini ko'rish;

4.2.16. Mijozning arizasiga asosan bank kartasidan foydalanishni to'xtatish va karta hisobvarag'ini yopish, hamda karta hisobvarag'idagi qolgan pul mablag'larini mijozning ko'rsatilgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkazish;

4.2.17. Mijozning yozma talabiga ko'ra, mijoz bankka kelganda yoki bankning masofaviy bank xizmatlari kanallari orqali, shuningdek telefon suhbatlari uchun to'g'ri parolni aytish sharti bilan aloqa markaziga murojaat qilganda bank kartasini blokdan chiqarish;

4.2.18. Bank tariflaridagi barcha o'zgarishlar haqida mijozni axborot stendlarida e'lonlar joylashtirish hamda bankning rasmiy veb-saytida ma'lumot berish orqali, ular kuchga kirishidan kamida 10 (o'n) bank kuni oldin xabardor qilish;

4.2.19. Ushbu shartnoma bekor qilinganda bank kartasini qabul qilib olish, karta hisobvarag'ini yopish va undagi qoldiq mablag'larni mijozning ko'rsatmasiga binoan uning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkazish;

4.2.20. Mijozning yozma arizasiga asosan, bank tariflariga muvofiq komissiya to'langanidan so'ng, 3 (uch) bank kuni ichida karta buzilgan yoki yo'qolgan hollarda yangi bank kartasini qayta chiqarib berish.

4.3. Mijoz quyidagilarga haqli:

4.3.1. To'lov tizimi qoidalari va Mijoz bilan tuzilgan shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartibga asosan bank kartasi orqali operatsiyalarni amalga oshirish;

4.3.2. Bankdan bank kartasidan foydalanish qoidalari hamda ular orqali operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha mijoz va bankning javobgarlik chegarasi to'g'risidagi to'liq axborotni olish;

4.3.3. Bankdan bank kartasi orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar to'g'risida to'liq axborot olish;

4.3.4. O'z roziligiga ko'ra, uning karta hisobvarag'ini tasarruf etish imkoniyatini beruvchi qo'shimcha bank kartalarini chiqarish va rasmiylashtirishni bankdan so'rash;

4.3.5. Karta hisobvarag'ini kelgusida yopish sharti bilan bank kartalaridan foydalanishni rad etish;

4.3.6. Amaldagi qonunchilik va ushbu shartnoma talablari doirasida o'z hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini erkin tasarruf etish;

4.3.7. Amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnoma rasmiylashtirish orqali uchinchi shaxsga karta hisobvarag'i va bank kartasidagi pul mablag'larini tasarruf etish huquqini berish(bunda mijoz karta hisobvarag'i va bank kartasini tasarruf etish huquqlarini uchinchi shaxslarga berishdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy oqibatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi);



Garant bank

4.3.8. Bankdan maslahatlar, shuningdek mijozga tegishli karta hisobvaraqlari bo'yicha xizmatlar olish bilan bog'liq ma'lumotlarni, jumladan karta hisobvaraqlari bo'yicha ko'chirmalar va amalga oshirilgan amaliyotlar haqidagi ma'lumotlarni olish;

4.3.9. Bankdan shartnoma bo'yicha majburiyatlarning tegishli ravishda bajarilishini talab qilish;

4.3.10. Bank kartasi yordamida bankomatlar/terminallarda naqd pul mablag'larini olish, terminallar/infokiosklar/bankomatlar orqali tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lovlarni amalga oshirish;

4.3.11. Bank tariflarining o'zgarishlari, shuningdek bank kartasidan foydalangan holda taqdim etiladigan yangi bank xizmatlari haqidagi ma'lumotlarni bank ofislarida hamda bankning rasmiy veb-saytidan olish;

4.3.12. Bank tariflariga muvofiq to'lovni amalga oshirgan holda bank kartasini qayta chiqartirish yoki qo'shimcha karta ochish;

4.3.13. O'z karta hisobvarag'i holati haqida ma'lumot olgan kundan boshlab 2 (ikki) bank kuni ichida uning karta hisobvarag'idan pul mablag'lari noto'g'ri yechilganligi to'g'risida e'tiroz bildirish (Mijozning ruxsatisiz va bank xatosi tufayli karta hisobvarag'idan pul mablag'larining yechilishi noto'g'ri yechilish deb hisoblanadi, ushbu shartnomaning 4.1.5-bandida ko'rsatilgan tranzaksiyalar bundan mustasno);

4.3.14. Bank kartasi yo'qolgan yoki shikastlangan taqdirda, uni qayta chiqarish uchun bankka ariza bilan murojaat qilish;

4.3.15. Bankning masofaviy bank xizmati tizimlari orqali, bankka yozma murojaat qilish yoki aloqa markaziga qo'ng'iroq qilish orqali bank kartasini bloklash va/yoki blokdan chiqarish (agar bloklash vakolatli organlarning so'roviga ko'ra va/yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda amalga oshirilgan bo'lsa, bank kartasini blokdan chiqarish mumkin emas).

4.4. Mijoz quyidagilarga majbur:

4.4.1. Bank kartasini qabul qilib olishda shaxsni tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasini ko'rsatish va PIN-kodni o'rnatish;

4.4.2. Bank kartasidan foydalanib amalga oshirilgan va PIN-kod yoki bir martalik o'zgaruvchan kodlar bilan tasdiqlangan tranzaksiyalar bo'yicha hisob-kitob qilish (amaliyotlarning haqiqiylikini tasdiqlash shartlari bank va tashqi to'lov tashkilotlarining to'lov tizimlaridan foydalangan holda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatishning alohida qoidalarida nazarda tutilgan);

4.4.3. Bank talabiga ko'ra, mijozni tegishli tarzda tekshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni, shu jumladan amalga oshirilayotgan amaliyot bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni bank belgilagan muddatlarda taqdim etish;

4.4.4. Bank tariflariga muvofiq ravishda bank xizmat haqqini o'z vaqtida to'lash;

4.4.5. Bank kartasining xavfsizligini ta'minlash hamda bank kartasining PIN-kodi, bir martalik SMS parollar, telefon suhbatlari va to'lov tizimlariga kirish uchun mo'ljallangan parollarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik;

4.4.6. Pasport va boshqa ma'lumotlar (familiya, ism, otasining ismi, yashash manzili, aloqa telefon raqami va boshqalar) o'zgargan taqdirda, o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni ichida tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda bu haqda Bankka yozma ravishda xabar berish;

4.4.7. Bank kartasi yo'qolgan yoki o'g'irlangan holatda, darhol bankning masofaviy bank xizmatlari orqali kartani bloklash yoki telefon suhbatlari uchun belgilangan to'g'ri parolni aytib aloqa markaziga murojaat qilish yoxud bu haqda bankni yozma tarzda xabardor etish;



Garant bank

4.4.8. Bank kartasi yo'qolishi yoki shikastlanishi sababli qayta chiqarilganda, bank tariflariga muvofiq bankka belgilangan xizmat haqini to'lash;

4.4.9. Bank kartasi yo'qolgan yoki o'g'irlangan hollarda bu haqda 24 soat ichida bankka xabar berish, shuningdek kartani bankning mobil ilovasi orqali mustaqil ravishda bloklash va/yoki 24 soat ichida bankning rasmiy masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali bankni xabardor qilish;

4.4.10. Bank tomonidan belgilangan to'lov tizimlari - «UZCARD», «HUMO» qoidalariga muvofiq bank kartasidan foydalanish tartibi va qoidalariga rioya qilish;

4.4.11. Bank kartasidan faqat karta hisobvarag'idagi mavjud qoldiq doirasida foydalanish va unda qarzdorlik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik. Karta hisobvarag'ida salbiy qoldiq yuzaga kelganda, qarzdorlik paydo bo'lgan paytdan boshlab bir oy ichida barcha qarz summasini to'lash (bank tomonidan alohida shartnoma asosida beriladigan overdraft xizmati hollari bundan mustasno);

4.4.12. Karta hisobvarag'i orqali tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq amaliyotlarni amalga oshirmaslik;

4.4.13. Karta hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirishda o'z karta hisobvarag'ida amaliyotni amalga oshirish va bank tomonidan xizmatlar uchun to'lovni undirish uchun zarur bo'lgan yetarli miqdordagi pul mablag'larini ta'minlash;

4.4.14. O'z karta hisobvarag'ining holati to'g'risida ma'lumot olgan kundan boshlab 2 (ikki) bank ish kuni ichida Bankka boshqa shaxsning pul mablag'lari o'z karta hisobvarag'iga tushganligi haqida yozma xabar berish va karta hisobvarag'i holati to'g'risida ma'lumot olgan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kuni ichida xato o'tkazilgan pul mablag'larini bankka qaytarish;

4.4.15. Karta hisobvarag'idan noto'g'ri yechib olingan pul mablag'larini qaytarish uchun Karta hisobvarag'i holati to'g'risida ma'lumot olgan kundan boshlab 2 (ikki) bank ish kuni ichida bu haqda Bankka xabar berish;

4.4.16. Taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning to'g'riligi uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga olish;

4.4.17. Bankning so'roviga ko'ra 3 (uch) bank kuni ichida ushbu shartnomada nazarda tutilgan xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish;

4.4.18. Bank va boshqa to'lov tashkilotlarining Internet tarmog'idagi rasmiy sahifalarida ulanish, kirish va xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lov tizimlari shartlari bilan mustaqil ravishda tanishib chiqish;

4.4.19. O'zining shaxsiy ma'lumotlari xavf ostida qolganda yoki shunday shubha paydo bo'lganda bankni darhol xabardor qilish, umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan Internet orqali uzatilgan ma'lumotlarning xavf ostida qolishi ehtimoli bilan bog'liq barcha xatarlarni o'z zimmasiga olish;

4.4.20. Shartnoma shartlari, bank kartasidan foydalanish qoida va talablariga amal qilish;

4.4.21. To'lov tizimi operatori tomonidan o'rnatilgan bank kartasidan foydalanish qoida va tartiblariga rioya etish.

5. BANK XIZMATLARI UCHUN KOMISSIYA MUKOFOTI

5.1. Ushbu Shartnomaga muvofiq ko'rsatiladigan xizmatlar narxi bank tariflari bilan belgilanadi.

5.2. Bank xizmatlari uchun to'lov mijozning karta hisobvarag'idagi pul mablag'laridan, alohida amaliyotlar o'tkazilishi davomida, bank tomonidan zarur summani akseptsiz yechib olish yo'li bilan undiriladi. Mijoz amaliyotlarni amalga oshirish bo'yicha bank xizmatlariga to'lovni



Garant bank

naqd pul shaklida ham, bankdagi boshqa hisobvaraqlardagi pul mablagʻlari hisobidan naqd pulsiz shaklda ham toʻlashi mumkin.

5.3. Bank oʻz tariflariga oʻzgartirishlar kiritish huquqiga ega. Bank tariflarga kiritilgan oʻzgartirishlar haqida ular kuchga kirishidan 10 (oʻn) bank kuni oldin mijozlarga xizmat koʻrsatish joylarida, shuningdek bankning rasmiy veb-saytida tegishli maʼlumotlarni joylashtirish orqali Mijozni xabardor qiladi.

Bank tariflari boʻyicha vositachilik haqi miqdori kamaytirilgan (Mijoz uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan) holatlarda, bank ushbu oʻzgarishlarni bank tariflariga kiritilgan oʻzgartirishlar kuchga kirgan kunning ertasidan kechiktirmay bir tomonlama tartibda qoʻllashga haqli.

6.4. Ushbu shartnomada koʻrsatilgan huquq va majburiyatlardan tashqari, tomonlar Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarga ega boʻladilar.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Mijoz quyidagilar uchun javobgar:

6.1.1. Karta hisobvaragʻi boʻyicha amalga oshirilayotgan amaliyotlarning qonuniyligi hamda bankka taqdim etilayotgan maʼlumotlar va hujjatlarning ishonchliligini taʼminlash uchun;

6.1.2. Mijozning gʻayriqonuniy xatti-harakatlari oqibatida yuzaga kelgan zararlarni, shu jumladan karta hisobvaragʻiga xato oʻtkazilgan mablagʻlarni bankka qaytarmaslik natijasida yetkazilgan zararlarni qoplash uchun;

6.1.3. Bank mijozning yozma arizasini, masofaviy bank xizmati orqali bank kartasini bloklash soʻrovini yoki bank kartasining yoʻqolishi/oʻgʻirlanishi yoxud karta hisobi boʻyicha shubhali faoliyat haqida aloqa markaziga murojaat qilingungacha sodir boʻlgan barcha tranzaksiyalar uchun;

6.1.4. Oʻz majburiyatlarini va ushbu Shartnomaning boshqa shartlarini buzganligi uchun;

6.1.5. Mijoz login/parolni oshkor etganligi va/yoki oʻziga tegishli boʻlgan mobil telefon raqami, elektron pochta manzili, shaxsiy kabinet yoki mobil bankingdan boshqa shaxslar foydalanishiga yoʻl qoʻyganligi uchun;

6.1.6. Mijoz karta maʼlumotlari va PIN-kodni uchinchi shaxslarga bergan hollarda, kartadan mablagʻlarni noqonuniy yechib olinishi uchun;

6.1.7. Mijoz PIN-kodni, telefon orqali suhbatlar uchun moʻljallangan parolni, toʻlov tizimlariga kirish parolini va 3 – D Secure kodni uchinchi shaxslarga oshkor etgan holda, bank kartasi boʻyicha uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan tranzaksiyalar uchun;

6.1.8. Bank kartasi boʻyicha internet orqali (kartani ushlab turuvchi shaxsning ishtirokida yoki ishtirokisiz) amalga oshirilgan tranzaksiyalar natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlar uchun;

6.1.9. Bankka kartasining yoʻqolishi yoki shikastlanishi (karta egasining ishtiroki bilan yoki ishtirokisiz) amalga oshirilgan tranzaksiyalar natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlar uchun;

6.1.10. Bank kartasi egasi karta, PIN-kod va/yoki CVV-2 ning oʻgʻirlanishi/yoʻqolishi/uning ustidan nazoratning yoʻqotilishi haqida bankni yozma ravishda xabardor qilmaslik yoki oʻz vaqtida xabardor qilmaslik uchun;

6.1.11. Ushbu Shartnomada koʻrsatilgan huquq va majburiyatlardan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda.

6.2. Bank quyidagilar uchun javobgar:

- 6.2.1. Mijozning karta hisobidan noto'g'ri summa yechib olinishi (haqiqiy zarar);
- 6.2.2. Karta hisobvarag'ini o'z vaqtida ochmaslik, shuningdek, Bank kartasini chiqarmaslik;
- 6.2.3. Bank sirini noqonuniy oshkor etish;
- 6.2.4. Mijozdan bank kartasining yo'qolganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida ariza qabul qilingandan so'ng Bank yo'qotilgan yoki ruxsatsiz foydalanilgan bank kartasi orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar;
- 6.2.5. Qalbaki bank kartasi orqali bajarilgan barcha operatsiyalar bo'yicha.

6.3. Bank quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod etiladi:

- 6.3.1. Protssessing markazi faoliyatidagi texnik nosozliklar yoki protssessing markazi bilan bog'liq boshqa holatlar sababli mijozning onlayn hisobvarag'ida mablag'larning o'z vaqtida aks ettirilmasligi yoki ularning vaqtincha foydalanib bo'lmazligi;
- 6.3.2. Uchinchi tomonning Bank kartasiga xizmat ko'rsatishni rad etishi yuzasidan;
- 6.3.3. Bank kartasi orqali xarid qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifati bo'yicha;
- 6.3.4. "UZCARD", "HUMO" va/yoki MUNIS to'lov tizimlarining boshqa ishtirokchi banklarining harakatlari yoki harakatsizligi natijasida Mijozning "UZCARD", "HUMO" va/yoki MUNIS to'lov tizimlariga a'zo bo'lgan boshqa banklarning xizmat ko'rsatish tarmog'ida bank kartasi bilan amaliyotlarni amalga oshirishda ma'naviy va/yoki moddiy zarar ko'rganligi;
- 6.3.5. Yo'qolgan yoki o'g'irlangan bank kartasini bloklash haqida bankka o'z vaqtida yozma xabar bermaslik oqibatlarini bo'yicha, jumladan, mijoz tomonidan bank kartasi o'g'irlanganligi va/yoki yo'qolganligi to'g'risida yozma xabarnoma olinguncha yoki mijoz aloqa markaziga murojaat qilgandan so'ng bank kartasi blokirovka qilinguncha, uchinchi shaxslar tomonidan bank kartasi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar uchun;
- 6.3.6. Mijoz tomonidan bank kartasining PIN-kodi, SMS parollari, telefon suhbatlari uchun parol va to'lov tizimlariga kirish parol(lar)ini uchinchi shaxslarga oshkor qilinishi natijasida, uchinchi shaxslar tomonidan bank kartasi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar;
- 6.3.7. PIN-kodning ketma-ket uch marta noto'g'ri kiritilishi oqibatida bank kartasining bloklanishi;
- 6.3.8. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tijorat banklarida amaliyotlarni to'xtatib qo'yish va amaliyotlarda foydalaniladigan mablag'larni muzlatish yuzasidan;
- 6.3.9. Mijoz tomonidan bank amaliyotlarini amalga oshirish va mijozni tegishli tarzda tekshirish uchun bank talab qilgan hujjatlar va ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etmasligi yoki umuman taqdim etmasligi, yoxud taqdim etilgan hujjatlarda noaniqliklar va xatolarga yo'l qo'yilganligi uchun;
- 6.3.10. Bankka bog'liq bo'lmagan sabablar tufayli va fors-major holatlar yuzaga kelganda bankning o'z majburiyatlarini bajara olmasligi uchun;
- 6.3.11. Mijozning tashqi to'lov tashkilotlarining to'lov tizimlaridan foydalanishda noto'g'ri harakatlar qilishi bo'yicha;
- 6.3.12. Agar Yagona umumrespublika-prosessing markazining texnik nosozliklari yoki uning faoliyati bilan bog'liq boshqa holatlar tufayli tashkilot xodimlarining onlayn hisobvarag'ida mablag'larning o'z vaqtida aks ettirilmasligi yoki ularning vaqtincha mavjud emasligi uchun;



Garant bank

6.3.13. Qog'oz shaklidagi Reyestr/Vedomost tarkibining bankning avtomatlashtirilgan bank tizimi ma'lumotlariga mos kelmaganligi uchun;

6.3.14. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkilotning tranzit hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlarning to'xtatilganligi uchun;

6.3.15. Agar bank kartasi saqlovchisi shartnomada belgilangan qoida va tartiblarni buzgan bo'lsa;

6.3.16. Bank kartasi saqlovchisi tomonidan noqonuniy harakatlar sodir qilingan holatda;

6.3.17. Bank kartasining yo'qolganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi fakti haqida bank kartasining saqlovchisi tomonidan emitent xabardor qilinmaganda;

6.3.18. Bank kartasiga bog'lik ma'lumotlar (SHIR kod, bir martalik SMS kod va boshqalar) mijoz tomonidan uchinchi tarafga ma'lum qilingan holatda.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA UNING BEKOR QILINISH TARTIBI

7.1. Ushbu shartnoma shartnomaning 1-ilovasi hisoblangan arizani imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi.

7.2. Ushbu shartnoma mijozning tashabbusi bilan istalgan vaqtda, u bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq barcha to'lov majburiyatlarini bajargan taqdirda, tegishli arizani shaxsan tegishli BXOga yoki bankning mobil ilovasi orqali topshirish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

Bank tomonidan shartnomani bekor qilish barcha amalga oshirilgan tranzaksiyalar to'liq tartibga solinganidan va mijozga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq amaliyotlar yakunlanganidan keyin amalga oshiriladi.

7.3. Ushbu shartnoma jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, shuningdek, so'nggi 12 oy davomida karta orqali hech qanday amaliyotlar amalga oshirilmagan, qarzdorlik va karta hisobvarag'ida mablag' qolmagan hollarda bank tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi mumkin.

7.4. Bank talabiga ko'ra, ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

7.5. Shartnomaning bekor qilinishi karta hisobvarag'ini yopish uchun asos hisoblanadi.

8. MAXFIYLIK

8.1. Bank va mijoz shartnoma bo'yicha ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash uchun javobgardir.

8.2. Bank va mijoz bir-biriga shartnoma predmetiga oid taqdim etadigan ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi. Tomonlar olingan ma'lumotlarning uchinchi shaxslarga oshkor bo'lishining oldini olish uchun barcha zarur va yetarli choralarni ko'radi.

8.3. Bank va mijoz shartnoma bo'yicha bank sirlarini va ma'lumotlarini saqlash uchun javobgardir.

9. FAVQULODDA HOLAT

9.1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari va (yoki) qisman bajarmaganliklari uchun, agar bu shartnoma tuzilganidan keyin yuzaga kelgan va Tomonlar mavjud choralar bilan ularning oldini olishning imkoni bo'lmagan yengib bo'lmay kuch (fors-major) oqibatida sodir bo'lgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladilar.



Garant bank

9.2. Yengib bo'lmaz kuch oqibati deganda quyidagilar tushuniladi: zilzila, suv toshqini, yong'in, boshqa tabiiy ofatlar, epidemiyalar, davlat organlarining shartnoma shartlarini bajarishga to'sqinlik qiladigan qarorlari va harbiy harakatlar.

9.3. Ko'rsatilgan oqibatlar sodir bo'lgan vaqtda, yengib bo'lmaz kuch ta'siriga ishora qiluvchi Tomon, bu haqda ikkinchi Tomonni darhol yozma ravishda xabardor etishi lozim.

9.4. Agar ko'rsatilgan oqibatlar uch oydan ortiq davom etsa, Tomonlar shartnoma majburiyatlarini bajarishni ikkinchi Tomonni ogohlantirgan holda bir tomonlama to'xtatishga haqlidir. Bunday holda shartnoma bajarilmagan qismi bo'yicha bekor qilinadi va Tomonlar shartnomaning bajarilgan hamda bajarilmagan qismlari bo'yicha yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

10. SANKSIYAGA OID SHARTLAR

10.1. Mijoz hisob bo'yicha amaliyotlarni sanksiyalarga qat'iy muvofiq va ularni buzmaganda amalga oshirilishini kafolatlaydi, tasdiqlaydi va ta'minlash majburiyatini oladi. Ushbu shartnoma tuzilgan kunga kelib, mijoz sanksiyalarga rioya etishni rag'batlantirishga qaratilgan siyosat va tartiblarga amal qiladi. Sanksiyalar deganda, jumladan, biroq ular bilan cheklanmagan holda, AQSH Moliya Vazirligining chet el aktivlarini nazorat qilish boshqarmasi (Office of Foreign Asset Control, U.S. Department of the Treasury) yoki AQSH hukumati, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar yoki boshqa davlatlarning istalgan organi, departamenti yoki agentligi tomonidan boshqariladigan har qanday iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar tushuniladi (keyingi o'rinlarda - Sanksiyalar).

10.2. Mijoz sanksiya ostidagi shaxslar bilan yoki ularning foydasiga hech qanday kelishuv, bitim yoki shartnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirmaydi va oshira olmaydi.

10.3. Agar mijozning har qanday kafolati yolg'on, noto'g'ri va (yoki) aniq bo'lmagan deb topilsa yoki ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlardan birortasi mijoz tomonidan ta'minlanmasa, bank mijozning to'lov topshiriqlari asosida amalga oshiriladigan amaliyotlar jarayonida mablag'larning qaytarilmasligi, bloklanishi, muzlatilishi yoki yo'qotilishi uchun moddiy javobgarlikdan ozod etiladi.

Bunda mijoz ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni buzishi oqibatida va (yoki) mijoz kafolatining noto'g'riligi yoki noaniqligi sababli kelib chiqqan to'g'ridan - to'g'ri va/yoki bilvosita zararlarni bankning talabi olingan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni ichida bankka qoplab berishi shart.

Shu bilan birga, bank shartnomani bajarishdan bir tomonlama ravishda, to'liq yoki qisman voz kechish huquqiga ega bo'lib, bunday bir tomonlama rad etishning mo'ljallangan sanasidan kamida 3 kalendar kun oldin mijozga tegishli bildirishnoma yuboradi.

10.4. Bank vakolatli organlar, tashkilotlar yoki banklar tomonidan qo'llanilgan salbiy choralar (mablag'larning bloklanishi, to'lovning rad etilishi va boshqalar) uchun javobgar emas va har qanday sanksiyalar amal qilishi bilan bog'liq ravishda (jumladan, biroq ular bilan cheklanmagan holda, tegishli ro'yxatlar, shu jumladan OFAC, EU Sanctions Map, OFSI, SDN va CARTA) yuzaga kelgan mijoz zararlarini qoplash majburiyatiga ega emas. Ushbu sanksiyalar natijasida bankning shartnoma bo'yicha majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan bo'lsa ham javobgarlikdan ozod etiladi.

10.5. Bank boshqa davlatlar qonunchiligi normalar bilan cheklangan yoki taqiqlangan banklar va/yoki kontragentlar foydasiga mijozning amaliyotlarini amalga oshirmaslik huquqiga ega (OFAC, EU Sanctions Map, OFSI, SDN va CAPTA).



Garant bank

Bunday holatda, bank mijozning topshiriq/ko'rsatmalarini bajarmaganligi uchun mijoz o'z mijozlari oldida mustaqil ravishda javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

10.6. Agar mijozning ko'rsatmasini bajarish munosabati bilan bankka jarimalar (boshqa mol-mulkka oid yoki nomol-mulkka oid sanksiyalar) qo'llanilsa, mijoz bankka nisbatan qo'llangan bunday sanksiyalar oqibatida yuzaga kelgan har qanday zararni qoplashga, shuningdek ushbu jarimalarni to'lashga majburdir.

11. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

11.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, har qanday noqonuniy ustunlik yoki boshqa imtiyozlarni olish maqsadida, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari ushbu shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir qilish uchun, har qanday shaxslarga haq to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar va hech qanday pul mablag'lari yoki qimmatbaho buyumlarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar.

11.2. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari, amaldagi qonunchilikka muvofiq pora berish/olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablarini va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni sodir etmaydilar.

11.3. Agar tomonlardan biriga boshqa tomon ushbu bo'limda ko'rsatilgan shartni buzganligi ma'lum bo'lsa, u bu haqda darhol ikkinchi tomonga xabar berishi va tegishli choralar ko'rishni hamda zarur harakatlarni amalga oshirishni talab qilishi shart.

11.4. Tomonning talabiga binoan tegishli choralar ko'rilmasa yoki tekshiruv natijalari haqida xabar berilmasa, ushbu tomon shartnomani bir tomonlama tartibda to'xtatib turish yoki bekor qilish, shuningdek yetkazilgan zararining to'liq qoplanishi talab qilish huquqiga ega.

11.5. Tomonlar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

12. BOSHQA SHARTLAR

12.1. Bank ushbu shartnomaning shartlariga bir tomonlama o'zgartirish kiritish huquqiga ega bo'lib, buni shartnomaning yangi tahriri va bank tariflarini o'zining veb-saytida joylashtirish orqali amalga oshiradi. Kiritilgan o'zgartirishlar bankning veb-saytiga joylashtirilgan paytdan boshlab bank va mijoz uchun majburiy kuchga ega bo'ladi.

12.2. Ushbu shartnomada ko'zda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni qoidalariga muvofiq, mijoz bankka o'zining shaxsiy ma'lumotlariga tegishli har qanday axborotni saqlash va qayta ishlash, jumladan avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash huquqini beradi. Bu huquq mijozning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, shaxssizlantirish va yo'q qilishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, mijoz ushbu shartnomada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida o'zining shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga uzatishga rozilik beradi.

12.3. Ushbu shartnomaning shartlari va ularning bajarilishi yuzasidan kelishmovchiliklar yuzaga kelganda, nizo tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra hal etiladi. Tomonlar kelishuvga erisha olmagan nizolar va kelishmovchiliklar Bank BXOsi joylashgan hududdagi vakolatli sudga ko'rib chiqiladi.



Garant bank

12.4. Agar bank tomonidan mijozning bank kartalari bo'yicha amaliyotlar to'xtatilsa (PIN-kodni noto'g'ri kiritish natijasida karta bloklangan holatlar bundan mustasno), bank amaliyotlar to'xtatilgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay mijozga uning hisobvaraqlari bo'yicha amaliyotlarni to'xtatish sababi haqida xabarnoma yuboradi.

12.5. Bank tomonidan kredit yoki mikroqarz bo'yicha qarzdorlikni qoplash maqsadida mijozning roziligsiz uning bank kartalaridan pul mablag'lari yechib olinsa, bank mazkur yechib olish amalga oshirilgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay mijozga yechib olingan summa, uning sababi va mablag'larni oluvchining nomi haqida xabarnoma yuborishi shart. Xabarnoma mijozga shaxsan, pochta yoki elektron aloqa vositalari orqali yoxud boshqa aloqa kanallari orqali yetkaziladi. Mijoz xabarnomani qabul qilish usulini bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish uchun ariza topshirish jarayonida o'zi mustaqil tanlashi lozim.



Kimdan:

UZCARD

HUMO

VISA

- ☐ Jis. shaxslar;
- ☐ Ish haqi;
- ☐ Pensiya kartasi;
- ☐ Kobeyj UPI;
- ☐ Bolalar kartasi;
- ☐ Ezgulik kartasi.

- ☐ Jis. shaxslar;
- ☐ Ish haqi;
- ☐ Pensiya kartasi;
- ☐ Talaba kartasi;
- ☐ Bolalar kartasi;
- ☐ Kobeyi MC;

- ☐ Classic;
- ☐ Gold;
- ☐ Infinite:

Hisobning valyutasi

Chiqarilayotgan karta

Qayta chiqarilish sababi

**Qayta chiqarilayotgan
kartaning raqami**

- ☐ So'm;
- ☐ AQSH dollari;

- ☐ Asosiy karta;
- ☐ Qo'shimcha karta:

- ☐ Shikast/Yo'qolish;
☐ Muddati tugadi;

Shuningdek, quyidagi qo'shimcha xizmatlarni faollashtirishingizni so'rayman:

- 3D-Secure;

- SMS xabarnoma;

Karta olish manzili:

Mijoz haqidagi ma'lumot

Pasport ma'lumotlari:

Tug'ilgan sana va joyi:

Manzil:

Telefon raqami:

Elektron poçta manzili:

Ommaviy oferta shartlari, tariflar hamda “Garant Bank” AJ ning kartalardan foydalanish qoidalarini o‘qish va tanishdim va ofertada ko‘zda tutilgan barcha shartlarni bajarish majburiyatini olaman.

Mijoz tomonidan ushbu arizaning imzolanishi uning Ommaviy oferta (shartnoma) ni tasdiqlaganlini (imzolaganligini) bildiradi hamda ofertani akseptlagani (qabul qilganligi)ni anglatadi.

Hurmatli mijoz, Sizdan, bank kartasi haqidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmasligingizni so'raymiz, jumladan: karta raqami, amal qilish muddati, SMS orqali keladigan bir martalik tasdiqlash kodlari, PIN-kod, CVV-2 va yoki/3-D Secure kodlari.

Sizni ogohlantiramiz: agar ushbu ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilsangiz, bank kartasi yordamida amalga oshirilgan amaliyotlar uchun javobgarlik Sizga yuklanadi.

Men ariza matni va mazmuni bilan tanishdim.



Sana

BANKNING XIZMAT BELGISI

Harakat/qaror/belgilar	F.I.SH.	Imzo
Arizani qabul qildi		

Hisob raqami:

[illegible]

Karta raqami:

[illegible]

Bank muassasinig kodi (MFO):

--	--	--	--	--

**Kartani yopiq konvertda
qabul qildim**

F.I.SH va Mijoz imzosi

____/____/____ Sana